



O‘ZBEK PAREMIOLOGIK MEROSINING XORIJDA O‘RGANILISHI

Davirova Vazira Quvondik qizi,
Perfect-University gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20656752>

Annotatsiya. *Xalq maqollari millatning tarixiy tajribasi, ijtimoiy hayoti, ma'naviy qadriyatlari va badiiy tafakkurini o'zida mujassam etgan muhim folklor janri sifatida baholanadi. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoga qiziqishning kuchayishi natijasida o'zbek folklori, jumladan xalq maqollarini yig'ish, tarjima qilish va tadqiq etish ishlari faollashdi. Ushbu maqolada o'zbek xalq maqollarining xorijda o'rganilishi tarixi, uning ilmiy-nazariy asoslari hamda xorijlik tadqiqotchilarning o'zbek paremiologik merosiga munosabati tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *folklor, maqol, badiiy tafakkur, tarix, ijtimoiy-siyosiy tuzum, G. Vamberi, N. Ostroumov, o'lkashunos, missioner.*

Аннотация. *Народные пословицы рассматриваются как важный жанр фольклора, в котором воплощены исторический опыт народа, его общественная жизнь, духовные ценности и художественное мышление. Во второй половине XIX века и в начале XX века в результате возросшего интереса к Центральной Азии активизировались процессы собирания, перевода и исследования узбекского фольклора, в частности народных пословиц. В данной статье анализируются история изучения узбекских народных пословиц за рубежом, их научно-теоретические основы, а также отношение зарубежных исследователей к узбекскому паремнологическому наследию.*

Ключевые слова: *фольклор, пословица, художественное мышление, история, социально-политический строй, Г. Вамбери, Н. Остроумов, краевед, миссионер.*

Abstract. *Folk proverbs are regarded as an important genre of folklore that embodies a nation's historical experience, social life, spiritual values, and artistic thinking. In the second half of the nineteenth century and the beginning of the twentieth century, growing interest in Central Asia led to the intensification of collecting, translating, and studying Uzbek folklore, including folk proverbs. This article analyzes the history of the study of Uzbek folk proverbs abroad, their scientific and theoretical foundations, and the approaches of foreign researchers toward the Uzbek paremiological heritage.*

Keywords: *folklore, proverb, artistic thinking, history, socio-political system, H. Vambery, N. Ostroumov, local historian, missionary.*

Kirish. Har bir xalqning milliy o'ziga xosligi, ma'naviy qiyofasi va tarixiy tajribasi uning og'zaki ijodida o'z ifodasini topadi. Xususan, xalq maqollari asrlar davomida shakllangan hayotiy kuzatishlar, axloqiy mezonlar, ijtimoiy munosabatlar va badiiy tafakkurning ixcham hamda ta'sirchan shakli sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois maqollar nafaqat folklorning muhim janri, balki muayyan xalqning madaniyati, turmush tarzi, dunyoqarashi va ma'naviy qadriyatlarini o'rganishda muhim manba vazifasini bajaradi. "Insoniyat tarixidagi eng qadimiy manbalarda ham maqollarga duch kelish mumkin. Chunki maqollar til birligi sifatida tabiiy ravishda har qanday nutq tarkibiga kiradi, shuningdek, klassik adabiyotda ham muhim badiiy vosita sifatida qo'llaniladi".[2.56.]



Adabiyotlar tahlili. O‘zbek paremiologik merosini o‘rganishga oid ilmiy adabiyotlarda xalq maqollarining tarixiy, badiiy va lingvistik xususiyatlari keng yoritilgan. Xususan, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida G. Vamberi va N. Ostroumov kabi xorijiy tadqiqotchilar o‘zbek maqollarini yig‘ib, tarjima qilib, ilmiy muomalaga kiritganlar. Bu ishlar o‘zbek paremiologiyasini Yevropa ilmiy doirasiga olib chiqishda muhim rol o‘ynagan. Keyingi davrda V. Jirmunskiy, K. Rayxel va boshqa olimlarning qiyosiy tadqiqotlari o‘zbek maqollarining umumturkiy va universal xususiyatlarini ochib berdi. Mahalliy folklorshunoslar esa maqollarni tizimlashtirish, janr xususiyatlarini aniqlash va ilmiy tasniflashga katta hissa qo‘shganlar. Umuman olganda, adabiyotlar tahlili o‘zbek paremiologiyasi xalq og‘zaki ijodining muhim va keng o‘rganilgan sohasi ekanini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda o‘zbek paremiologik merosini xorijda o‘rganish jarayonini tahlil qilishda tarixiy-qiyosiy, tavsifiy va tahliliy metodlardan foydalanildi. Tarixiy metod orqali XIX asr oxiri va XX asr boshlarida o‘zbek xalq maqollarining yig‘ilishi va nashr etilishi jarayoni o‘rganildi. Qiyosiy metod esa o‘zbek maqollarining boshqa xalqlar paremiologik materiallari bilan o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlashga xizmat qildi. Tavsifiy va tahliliy metodlar yordamida G. Vamberi, N. Ostroumov kabi xorijiy tadqiqotchilarning ishlari hamda ularning ilmiy qarashlari tahlil qilindi. Shuningdek, ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish va tizimlashtirish usuli orqali mavzuga oid nazariy xulosalar shakllantirildi. Natijada o‘zbek paremiologik merosining xorijda o‘rganilishi ko‘p qirrali ilmiy yondashuvlar asosida rivojlanganligi aniqlandi.

Tahlillar va natijalar. Darhaqiqat, maqollar inson nutqi paydo bo‘lgan davrdan boshlab shakllana boshlagan. Jamiyatda ota o‘g‘ilga, ona qiziga hayot saboqlarini o‘rgatar ekan, ular hayot qonun-qoidalariga tayanadi. Bu qonun-qoidalar esa xalqning ko‘p asrlik tajribasi sifatida xalq maqollarida o‘z ifodasini topgan. Shu bois ularni yig‘ish va tadqiq etish ijtimoiy, madaniy, tarixiy hamda siyosiy jihatdan katta ahamiyatga ega.

Birinchidan, xalq maqollarini o‘rganish orqali xalqning dunyoqarashi, falsafasi, psixologiyasi, turmush tarzi va hayotiy ko‘nikmalarini aniqlash mumkin.

Ikkinchidan, xalqning madaniyati, axloqiy qarashlari, tarbiya va ma’naviy qadriyatlarini tadqiq etish imkoni yaratiladi.

Uchinchidan, uning tarixi, o‘tmishi va o‘ziga xos an’analari haqida ma’lumot olish mumkin.

To‘rtinchidan, xalqning diniy qarashlari, jamiyat va tabiatga munosabatini tahlil qilish imkoni paydo bo‘ladi.

Shuning uchun ham xalq maqollari qadimdan xorijlik tadqiqotchilar e’tiborini jalb qilib kelgan. Masalan, qadimgi rim tarixchisi Kursiy Ruf ma’lumotlariga ko‘ra, Markaziy



Osiyoni zabt etgan Aleksandr Makedonskiy mahalliy aholi maqollarini yozib olishni buyurgan.[11.180]

Demak, xalq maqollarini yig'ish va o'rganish ham ijtimoiy-siyosiy, ham madaniy-ma'rifiy maqsadlarga xizmat qilgan. Shu nuqtai nazardan xalq maqollarini o'rganishni ikki yo'nalishda ko'rib chiqish mumkin:

O'zbek folklorshunosligida xalq maqollarining o'rganilish tarixi;

Xorijiy mamlakatlar folklorshunosligida o'zbek xalq maqollarining tadqiq qilinishi.

O'zbek folklorshunosligida xalq maqollarini o'rganishdan asosiy maqsad — ularning folklor tizimidagi o'rni, janroviiy tabiati, badiiy tuzilishi va til xususiyatlarini tadqiq etish orqali o'zbek folklori nazariyasini boyitishdan iborat.

Xorijda o'zbek xalq maqollarini o'rganish maqsadlari esa biroz farq qiladi. Jahon folklorshunosligida har bir milliy og'zaki adabiyot muayyan o'ringa ega bo'lib, ularni tadqiq qilishda qiyosiy-tipologik metoddan foydalaniladi. Bu usul orqali folklordagi motiv, syujet, mavzu va g'oya kabi nazariy tushunchalarning genezisi, o'xshash va farqli jihatlari aniqlanadi hamda folklor taraqqiyoti tadqiq etiladi.

Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, xorijlik olimlar o'zbek folklorini yana bir qator maqsadlarda ham o'rganganlar. Shu bois xorijda o'zbek folklorini o'rganishni quyidagi ikki yo'nalishda tasniflash mumkin:

O'zbek va xorij xalqlari folklorini qiyosiy-tipologik jihatdan tadqiq etish;

O'zbek folklorini ijtimoiy-siyosiy maqsadlarda o'rganish.

Bugungi kunda jahon folklorshunosligida birinchi yo'nalishdagi tadqiqotlar yuqori ahamiyat va samaradorlikka ega. Chunki ma'naviyat manbai bo'lgan og'zaki ijodni o'rganmasdan turib haqiqiy ma'rifatga erishib bo'lmaydi. Ayniqsa, globallashuv davrida barcha xalqlar bir ildizdan kelib chiqqanligi, inson tafakkuri "ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal" tamoyiliga asoslanganini anglatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunday tadqiqotlar folklorshunoslik taraqqiyotiga xizmat qilib, turli mamlakat olimlarining fikr almashishi, tajriba orttirishi va ilmiy salohiyatini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, bu kabi ishlar ikki xalq o'quvchilari uchun ham qiziqarli hisoblanadi.

Rus olimi V. Jirmunskiy, nemis olimi Karl Rayxel, koreys olimi In Kyong O, turk olimlari Husayn Baydimir, Salami Fidakar, Aynur Ozjan, ozarbayjonlik olim Fuzuli Bayat Go'zalov kabi tadqiqotchilarning ishlari nafaqat o'zbek folklorshunosligi, balki rus, nemis, koreys, turk va ozarbayjon folklorshunosligi rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatgan.

Ikkinchi yo'nalishdagi tadqiqotlar negizida esa ijtimoiy-siyosiy maqsadlar yotadi. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida o'zbek dialektlari hamda folklori xorijlik olimlarning diqqatini kuchli jalb eta boshladi. Ayniqsa, Markaziy Osiyoda ingliz, nemis va rus elchilari faoliyati kengaydi.



Bu davrda jahon siyosiy vaziyati o'zgarib, Markaziy Osiyoga nisbatan bosqinchilik kayfiyati kuchaydi. Dunyoni bo'lib olishga intilgan yirik davlatlar Qadimgi Turon hududlariga da'vogar bo'la boshladi. O'sha davrda Markaziy Osiyo Qo'qon xonligi, Xiva xonligi va Buxoro amirligidan iborat edi.

Xorijlik olimlar o'zbek xalq og'zaki ijodi, dialektlari va folklorini o'rganish bahonasida mamlakatning ichki siyosiy ahvoli, xalq hayoti, tabiiy muhiti, dunyoqarashi va madaniyati haqida ma'lumot to'plashga intilganlar. Ular mamlakatga ko'pincha o'lkashunos yoki sayohatchi qiyofasida kirib kelgan.

Shunday olimlardan biri vengr tadqiqotchisi Xerman Vamberi bo'lib, u Xiva xonligi va Buxoro amirligi tarixi hamda madaniyatini o'rgangan. U o'zbek og'zaki ijodiga qiziqib, ertak, rivoyat, afsona va maqollarni yig'ib, nashr etgan. Uning 1867 yil Leypsigda chop etilgan "Chig'atoy tili darsligi" asarining xrestomatiya-lug'at qismida folklor namunalari bilan bir qatorda nemis tiliga tarjima qilingan 112 ta o'zbek maqoli ham keltirilgan.[9.7]

O'zbek va nemis maqollarini qiyosiy o'rgangan tadqiqotchi F. Bafayev bu haqda shunday yozadi: "1865 yilda Vengriya Fanlar akademiyasining filologiya bo'limi nashri bo'lgan "Lingvistik xabarlar" jurnalida o'zbek folklori materiallari, jumladan 44 ta maqol, bir nechta ertak va topishmoqlar e'lon qilindi. Bu holat xorijda o'zbek folkloriga qiziqish ortib borayotganidan dalolat berar edi" .[1.33]

X. Vamberi nafaqat o'zbek maqollarini yig'gan, balki ularni ona tiliga tarjima qilib, muayyan sharhlar ham bergan. Adabiyotshunos Bahodir Karim bu haqda shunday ta'kidlaydi: "Ma'lumki, German Vamberi 1863–1864 yillarda O'rta Osiyoga darvesh qiyofasida kelgan. U imkoni boricha manbalarni yig'ib, o'zi bilan olib ketgan. Ko'p o'tmay uning "O'rta Osiyo bo'ylab sayohat" asari va "Chig'atoy tili darslari" kitobi nashr etildi. Bu kitobning "Xrestomatiya" qismida 1867 yilda 112 ta o'zbek maqoli asl matnda — arab va lotin yozuvida, shuningdek nemis tilidagi tarjimasi bilan berilgan".[7.178]

X. Vamberining o'zbek xalq maqollarini o'z ichiga olgan "Chig'atoy tili darsligi" kitobi ilk bor 1867 yilda Leypsigda, keyinchalik 1975 yilda Amsterdamda qayta nashr qilingan. Muallif so'zboshida shunday yozgan: "Xitoydan Dunaygacha bo'lgan xalqlar tillari, ularning ichki va tashqi munosabatlari, taraqqiyoti o'zaro bog'liqdir. Men darvesh qiyofasida Turkiston sahrolari va dashtlarida kezib yurib til va adabiyotga oid qimmatli materiallarni yig'dim. Ularning ilm-fan taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etishiga umid qilaman".[8.10]

Tarixdan ma'lumki, mustamlaka qilingan xalqni to'liq bo'ysundirish uchun uning tili, dini, urf-odati va an'analaridan uzoqlashtirishga harakat qilingan. Buning uchun esa, avvalo, xalq hayotini chuqur o'rganish talab etilgan. Xalq hayotini o'rganishning tabiiy yo'llaridan biri esa uning og'zaki ijod namunalarni yig'ish, tarjima qilish va nashr etish bo'lgan.



Markaziy Osiyo bosib olingandan keyin chor Rossiyasi nafaqat mintaqa boyliklarini, balki mahalliy xalqning o'tmishi va kelajagini ham nazorat qilishga intildi. Shu maqsadda xalqning dini va milliy qadriyatlarini zaiflashtirish, ruslashtirish siyosatini amalga oshirish uchun Turkistonga missioner va sharqshunoslar yuborildi. Ana shunday shaxslardan biri N. P. Ostroumov edi.[3]

XIX asr oxirida u Turkiston o'lkasi etnografiyasini o'rganishga va og'zaki ijod namunalari yig'ishga kirishdi. Uning o'zi bu haqda shunday yozgan: "Mahalliy aholining maqol, topishmoq, afsona, ertak, qo'shiq, urf-odat va o'yinlari haqida to'liq ma'lumot to'plash ularning psixologiyasini anglash va hayotining turli jihatlarini tushunish kaliti bo'ladi". [10.110]

Ostroumov to'plagan materiallar "Sartlar. Etnografik materiallar" nomi bilan uch jildda nashr qilingan. Ushbu to'plam 1891–1895 yillarda Toshkentda "F. va G. Br. Kamenskiylar" bosmaxonasida chop etilgan. [10.108]

To'plamning birinchi jildida eski o'zbek yozuvida qayd etilgan 1100 ta maqol jamlangan. Uchinchi jild esa to'liq o'zbek xalq maqollari va topishmoqlariga bag'ishlangan. Unda N. Ostroumov mingga yaqin maqolni rus tiliga tarjima qilib, 21 mavzuviy guruhga ajratgan. Shuningdek, u XIX asrning yirik shoiri Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarini xalq ertagi deb noto'g'ri talqin qilib, to'plamga kiritgan.

Shundan keyin u "Sartlar maqol va matallari haqida ayrim mulohazalar" nomli maqolasida o'zbek xalq maqollarining o'ziga xosligi, shakli va badiiy xususiyatlari haqida ilmiy fikrlar bildirgan. Bu ish rus olimining o'zbek xalq maqollariga oid ilk nazariy qarashlaridan biri sifatida muhim ahamiyatga ega.

N. P. Ostroumov o'zbek xalq maqollarini o'rganishda quyidagi vazifalarni oldiga qo'ygan:

O'zbek xalq maqollarini yig'ish va nashr qilish;

O'zbek maqollarini rus tiliga tarjima qilish;

O'zbek va rus maqollarini qiyosiy o'rganish;

O'zbek xalq maqollarining kelib chiqishi va o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish;

Maqollar orqali o'zbek xalqining dunyoqarashi, psixologiyasi va xarakterini o'rganish.

Maqol va matallarni tadqiq qilishda N. P. Ostroumov rus folklorshunoslari qarashlariga tayangan. Xususan, maqollarni yig'ish va nashr qilishda V. Dal ko'rsatmalaridan, maqol va matallarni farqlashda esa F. Buslayev hamda A. Potebnya fikrlaridan foydalangan. Albatta, mazkur olimlarning rus maqollarini o'rganishdagi xizmatlari katta bo'lsa-da, ularning nazariy qarashlarini o'zbek maqollariga to'liq tatbiq etish har doim ham to'g'ri bo'lmagan. Afsuski, bu yondashuv keyingi o'zbek folklorshunosligida ham davom etgan va hozirgacha maqol hamda matallarni farqlash masalasida yagona xulosa shakllanmagan.

N. P. Ostroumov o‘zbek xalq maqollarining shakllanish omillarini ham o‘rganishga harakat qilgan. Uning fikricha:

“Sartlarning maqol va matallari kelib chiqishi o‘ziga xos qadimiy tarixiga ega. Maqollarining aksariyati umumturkiy bo‘lib, boshqa turkiy xalqlarda ham qo‘llanadi. Shuning uchun aynan bir maqol qirg‘izlar, tatarlar va turklar nutqida ham uchraydi. Ba‘zi maqollar sartlar bilan yonma-yon yashaydigan fors-tojik tillaridan o‘zlashgan”. [10.114] Ko‘rinadiki, xalq maqollarining asosiy qismi xalqning maishiy hayot tajribalari asosida shakllanadi, ikkinchidan, xalqning diniy qarashlari va e‘tiqodi ham xalq maqollarining shakllanishiga asos bo‘ladi. Uchinchidan, yozma adabiyot ham xalq maqollarining paydo bo‘lishida yetarlicha asos bo‘lishini aytib: “Sart maqollarining shakllanishida diniy e‘tiqod bilan birga, dinga alohida e‘tibor bilan yondashgan va xalq orasidan yetishib chiqqan buyuk shoirlar So‘fi Olloyor, Hazrati Yassaviy kabi ijodkorlarning ham ta’siri kattadir”. [10.118]

Rus missioneri N. P. Ostroumov o‘zbek xalq maqollarini o‘rganishda ilmiy va nazariy qarashlari bilan alohida o‘rin tutadi. Garchi uning faoliyati ma’lum ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga xizmat qilgan bo‘lsa-da, u o‘zbek xalq qo‘shiq-lari, ertaklari, maqol va topishmoqlarini ilk bor yig‘ib, nashr etish orqali o‘zbek folklorshunosligi rivojiga muayyan hissa qo‘shgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalq maqollari xalqning ko‘p asrlik hayotiy tajribasi, milliy dunyoqarashi va ma’naviy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan muhim folklor janri hisoblanadi. Shu sababli ular nafaqat milliy folklorshunoslik, balki jahon paremiologiyasi va qiyosiy folklor tadqiqotlarida ham muhim ilmiy manba sifatida e‘tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. wikipedia.org/wiki/Ostroumov_Nikolay_Petrovich.
2. Bafoyev F. O‘zbek va nemis xalq maqollarining qiyosiy-tipologik tadqiqi: Filol. fan. b-cha falsafa d-ri (PhD)... diss. – Toshkent, 2021. – B.33.
3. Y.Rahmatov. Karim B. Herman Vamberi – O‘zbek maqollari tarjimoni // Jahon adabiyoti. – Toshkent, 2018. – № 12. –B. 178-183.
4. Nurmurodov Y.B. Istoriya izucheniya i problem nauchno-literaturnogo perevoda uzbekiskogo folklore na nemetskiy yazik: Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. – Toshkent: Fan, 1983. (Nurmurodov Y. O‘zbek folklori nemis tilida. – Toshkent: Fan, 1987. – B.7.)
5. Ostroumov N.P. Sarti. Etnograficheskiye materialy. Vipusk tretiy. Poslovitsy i zagadki sartov. – Toshkent: Yeipo-Litografiya torg. Doma. F. i. G. Br. Kamenskiye, 1895. – S. 210.
6. Mirzayev T. So‘zdan so‘zning farqi bor / O_zbek xalq maqollari. – Toshkent, 2013. – B. 4.
7. Vamberi H. Tschagataische Sprachstudien. – Leipzig., 1867; Ostroumov N. P. Poslovitsy i zagadki sartov // Etnograficheskiye materialy. Vip. III. – Tashkent, 1895.
8. Ozbek xalq maqollari. Tuzuvchilar: T.Mirzayev, A.Musaqulov, B.Sarimsoqov. – T.: Sharq, 2019. – 512 b. 20
9. Nurmurodov Y. O‘zbek folklori nemis tilida. – Toshkent: Fan, 1987. – B.10.
10. Trever K.V. Pamyatniki greko-baktriyskogo iskusstva. – M.-L.: Izd-vo AN SSSR, 1940. – 180 s.